



NE'MAT AMINOV HIKOYALARIDA BADIY DETALNING XARAKTER YARATISHDAGI FUNKSIYASI (“FOTIHA” HIKOYASI MISOLIDA)

Botirova Shahrizoda Iqboljon qizi

FarDU Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti

+998905552241

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ne‘mat Aminovning hikoyasida foydalanilgan badiiy detalga e‘tibor qaratiladi va atroflicha tahlilga tortiladi. “Fotiha” hikoyasida muallif voqealarni ochishda badiiy detaldan mahorat bilan foydalanadi. Kichik, lekin mazmunli detallar qahramonlarning ichki holatini, kayfiyatini va munosabatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Ayniqsa kundalik hayotga oid buyumlar va mayda harakatlar orqali muhit jonlantiriladi hamda syujet tabiiy rivojlanadi. Detallar asarda psixologik ta’sirni kuchaytirib, g‘oyaviy mazmuni o‘quvchiga chuqurroq yetkazadi.

Kalit so‘zlar: satira, detal, kompozitsiya, personaj psixologiyasi, interyer, drammatizm

KIRISH

Satirik asarlarning yuki ancha zalvarli, uni “ko‘tarib yurishga” uncha-muncha ijodkorning “beli chidamaydi”. Varaqlari qatiga yashiringan achchiq kulgi vositasida aytilgan haqiqatlarni esa asl kitobxonlar payqamay qolmaydi. Haqiqat mag‘zini ko‘ra olish uchun burgutning ko‘zi bo‘lishi shart emas, ko‘p mutolaa orqali o‘qib orttirilgan yuksak zakovat va aql bo‘lsa kifoya. Satira qilinayotgan personaj, holat umumiylik kasb etadi. Yozuvchi bir emas, balki bir nechta shu kabilarni tanqid ostiga oladi. Zamon va makon taqazosi bilan satira estetik kategoriya sifatida boyib boraveradi, uning mohiyatida ijodkor badiiy niyati, konsepsiyasi, obraz yaratish



mahorati, badiiy uslubi yotadi. Shakl va mazmunan o‘ziga xos, poetik qirralari rang-baranglikka moyil bo‘lgan satira adabiy qahramonlarni o‘zligini anglashga, o‘z yo‘lini topishga, yaxshilikka xizmat, yomonlikdan nafrat qilishga zamin yaratadi. Ayniqsa, satirik asarda qo‘llangan badiiy detallar xarakter qirralarini ochib berish, ichki dunyosining anglamlarini yoritish, konflikt yaratish yoki yechim taqdim etishda muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Taniqli olim professor Yo‘ldosh Solijonov “ Detallar tilga kirganda” maqolasida “Aslida detal barcha janrlarda ham o‘ziga xos o‘rin tutadi, lekin hikoyada boshqacha ahamiyat kasb etadi-da! Bilasiz, hikoya qisqa hajmli asar. Qisqalikka esa tasvirda so‘zlarni tejash orqali erishiladi. Ana shunda detallashtirish mahorati yozuvchiga qo‘l keladi. Ijodkorning topqirligi tufayli qo‘llangan detallar tilga kirganda hikoyani gapirtirib yuboradi. Kitobxon e’tibor bermay o‘tishiyam mumkin bo‘lgan bunday detallar yo yo‘l-yo‘lakay shunchaki eslab qo‘yiladi (ammo izsiz ketmaydi) yoki bayon qilinayotgan voqelikka singdirib yuboriladi”¹, deyiladi. Darhaqiqat, badiiy detallning badiiy asardagi vazifasi juda yuqori turadi. Qandolatchi uchun shakar nechog‘lik zarur bo‘lsa, yozuvchi asarlarida detallashtirish huddi shunday ahamiyatga ega.

Nazariyachi adabiyotshunos olim To‘xta Boboyev “Adabiyotshunoslik asoslari” darsligida: “Detal, odatda, lo‘nda, aniq, yorqin va obrazli ifoda bo‘lib, asosan, tasvir obyektini sintezlashtirib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Badiiy asar kompozitsiyasida detal o‘z o‘rnini topgandagina badiiy-estetik vazifa bajaradi. U yozuvchini ko‘p so‘zlikdan, ya’ni “adabiy laqmalik”dan saqlaydi. Sermazmunlilikka erishish – badiiy detalning xarakterli xususiyatidir”²,—deya badiiy detalning qiymatini belgilab beradi.

¹ Solijonov Y. Detallar tilga kirganda. O‘zbek adabiy tanqidi: [antologiya] /tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi B.Karimov; tahriri hay’ati U.Normatov [va boshq] – T.: “TURON-IQBOL”, 2011.

² Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – B.74-75.



NATIJA VA MUHOKAMA

O‘zbek adabiyoti nasrida muhim o‘rin tutuvchi, o‘tkir qalam sohibi, satirik ijodkor Ne‘mat Aminov asarlarida badiiy detalning turlaridan mohirona foydalanilgan. Xarakter yaratishda muhim vazifa bajaruvchi jihatni ham aynan hikoyalaridagi detallarda ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Uning “Fotiha” hikoyasida personajlar nutqi, psixik jarayonlari, peyzaj, interyer, portret tasviri va boshqalar yaxlit o‘ziga xos kompozitsiyani tashkil etgan. Natijada to‘liq, badiiy baquvvat va mukammal asar dunyoga kelgan. Ne‘mat Aminovning “Fotiha” hikoyasi o‘zbek nasrida detallar orqali xarakter va muhit yaratishning yorqin namunalaridan biridir. Ushbu asarda detal oddiy tasviriy unsur bo‘lib qolmay, balki badiiy fikrni chuqurlashtiruvchi, qahramon ruhiyatini ochuvchi va ijtimoiy muhitni ifodalovchi asosiy vositaga aylanadi. Shu jihatdan hikoyani ilmiy-estetik nuqtai nazardan tahlil qilganda, detallar tizimi asarning semantik qatlamini tashkil etuvchi markaziy komponent sifatida namoyon bo‘ladi. Avvalo, hikoyaning kirish qismidayoq berilgan “eshik qo‘ng‘irog‘i bosildi” detali oddiy voqea signali emas. Bu detal syujetni harakatga keltiruvchi impuls vazifasini bajaradi. Qo‘ng‘iroq ovozi orqali muallif tashqi olam bilan ichki olamni to‘qnashuvga olib kiradi. Ichkarida — kichik xonada cho‘zilib yotgan, ruhiy va jismoniy holdan toygan yosh shoir Muhammadjonga xos passiv muhit mavjud bo‘lsa, tashqarida esa ijtimoiy majburiyatlar, urf-odatlar, “fotiha” bilan bog‘liq an‘anaviy dunyo turibdi. Shu tarzda bitta detal orqali ikki xil olam qarama-qarshiligi yaratiladi. Muhammadjon obrazini yaratishda muallif juda nozik psixologik detallarni qo‘llaydi. Masalan, uning “kichik xonada yig‘ma karavotda cho‘zilib yotgani”, “eski shim va yirtiq ko‘ylakda ekani”, “sochini qo‘li bilan tuzatgani” kabi detallar qahramonning ijtimoiy ahvoli, beparvoligi va ichki tushkunligini ochib beradi. Bu yerda detal faqat tashqi ko‘rinishni emas, balki ruhiy holatni ham ifodalaydi. Yig‘ma karavot — vaqtinchalilik, beqarorlik ramzi; yirtiq kiyim — moddiy tanglik va ichki tartibsizlik belgisi. Demak, detal obrazning ichki mazmuniga xizmat qilmoqda.



Arabjon obraziga kelganda, uning boshidagi “oxorli, chust do‘ppi” detali alohida e’tiborga loyiq. Bu detal ikki qatlamli ma’noga ega: birinchidan, u qahramonning tashqi tartibliligini, urf-odatlariga sodiqligini bildiradi; ikkinchidan esa, bu sun’iylik, tashqi ko‘rinishga berilish, ichki mohiyatdan uzoqlashish ramzi sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, Arabjonning do‘ppisini qayta-qayta kiyib-yechishi, uni to‘g‘rilashi uning ichki beqarorligi, vaziyatga moslashuvchanligi, hatto ikkiyuzlamachiligini ochuvchi psixologik detalga aylanadi. Hikoyada hid bilan bog‘liq detal — “araq hidi kelayotgani” ham muhim badiiy yuklamaga ega. Bu detal qahramonlarning ma’naviy qiyofasini ochishda xizmat qiladi. Chunki ular “fotiha” kabi muqaddas marosimga kelayotgan bo‘lsalar-da, aslida ichki jihatdan bu marosimning mohiyatiga zid holatda ekanliklari ayon bo‘ladi. Demak, hid detali orqali muallif ijtimoiy tanqidni amalga oshiradi: tashqi diniy-amaliy rasm-rusumlar bilan ichki axloqiy holat o‘rtasidagi nomutanosiblik fosh etiladi. Dialoglar tarkibidagi detallar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, “bugun vafot etgan bo‘lsalar, ertaga chiqaradilar kerak-da?” kabi gaplar qahramonlarning o‘limga, insoniy qadriyatlarga befarqligini ko‘rsatadi. Bu yerda detal nutq orqali ifodalanib, xarakter ochish vositasiga aylanadi. Asar davomida detal tizimi yanada murakkablashib, u nafaqat obraz yaratish, balki ijtimoiy-falsafiy mazmunni ochishda ham markaziy vositaga aylanadi. Bu bosqichda muallif detallarni dinamik holatda qo‘llab, qahramonlarning ichki evolyutsiyasi va ularning muhit bilan ziddiyatini yanada chuqurlashtiradi. Hikoyada kampirning o‘limi haqidagi xabar bilan bog‘liq sahnada berilgan detallar alohida dramatik yuklama kasb etadi. Masalan, yig‘layotgan yigitning “ko‘z yoshlarini artishi”, “yelkalarining silkinishi” kabi detallar tashqi harakat orqali ichki iztirobni ifodalaydi. Bu yerda muallif an’anaviy psixologik tasvir usulidan foydalanadi: ruhiy holat bevosita izohlanmaydi, balki tana harakati, mimika orqali ochiladi. Shu bilan birga, bu samimiy qayg‘u fonida Arabjonning mutlaqo boshqacha tutumi keskin kontrast hosil qiladi. Ayniqsa, Arabjonning oynaga qarab do‘ppisini to‘g‘rilashi, sochlarini tartibga keltirishi detali



juda chuqur ramziy ma'noga ega. Bu holat marosimga borayotgan insonning ichki emas, tashqi ko'rinishga urg'u berayotganini ko'rsatadi. Ya'ni u "fotiha"ning mohiyatini emas, uning tashqi rasm-rusumini muhim deb biladi. Shu o'rinda Muhammadjonning ichki reaksiyasi — "Esing past, to'yga borasan-a?" degan o'y ham detal sifatida muhim: bu qahramonning axloqiy sezgirligini, voqelikka tanqidiy qarashini ochadi. Keyingi sahnalarda shahar muhitini tasvirlovchi detallar — "katta asfalt yo'l", "mashinalar g'izillab o'tishi", "neon chiroqlar", "shildirab oqayotgan suv" kabi tasvirlar urbanistik muhitni yaratadi. Bu detallar tasodifiy emas: ular zamonaviy hayotning shoshqaloqligi, sovuqqonligi va insoniy qadriyatlarga befarqligini ifodalaydi. Ayniqsa, fotiha kabi sokin, mulohazali marosim bilan bu shovqinli muhit o'rtasidagi ziddiyat asarning ichki dramtizmini kuchaytiradi. Arabjonning "do'ppini buklab cho'ntagiga solishi" detali esa butun hikoyaning g'oyaviy markazlaridan biri hisoblanadi. Avval boshida do'ppi uning "musulmonchilik", ya'ni tashqi e'tiqod ramzi sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, endi uni yechib, cho'ntagiga solishi bu qadriyatning vaqtincha, vaziyatga qarab o'zgaruvchi ekanini anglatadi. Uning "endi musulmonchilik, kiyimasa bo'lmas ekan" degan kinoyali gapi esa bu detalni yanada keskinlashtiradi. Bu yerda muallif ijtimoiy niqob, riyo va ikkiyuzlamachilikni fosh etadi. Fotiha marosimi o'tkazilayotgan hovli tasvirida ham detallar tizimi juda boy. "Katta hovli", "o'rtada gulzor", "baland supa", "ikki qator dasturxon", "non, qand-qurs, mayiz" kabi detallar milliy muhitni yaratadi. Biroq bu tashqi uyg'unlik ichki ruhiy holat bilan mos kelmaydi. Chunki marosim ishtirokchilarining aksariyati bu joyda chin dildan qayg'u bilan emas, balki odat, majburiyat yoki hatto manfaat yuzasidan to'plangan. Demak, detal orqali muallif tashqi tartib va ichki bo'shliq o'rtasidagi tafovutni ko'rsatadi. Eng muhim psixologik detal esa Muhammadjon obraziga tegishli. U marosim davomida "bir yil oldin vafot etgan onasini eslashi" orqali ichki dramatik chiziqni ochadi. Bu xotira detali uning ruhiy dunyosini chuqurlashtiradi, uni boshqa qahramonlardan ajratib turadi. Agar boshqalar uchun fotiha — ijtimoiy rasm-rusum



bo'lsa, Muhammadjon uchun u shaxsiy dard, chin insoniy iztirob bilan bog'liq hodisadir. Shu tariqa detal obrazlar o'rtasidagi axloqiy tafovutni ochishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Asar yakunidagi "kaftlar yuzga surtildi" detali esa ramziy yakun vazifasini bajaradi. Bu oddiy harakat emas, balki butun marosimning tashqi ifodasi sifatida keladi. Ammo muallif kontekstida bu harakatning ichki mazmuni savol ostida qoladi: bu chin dildan qilingan duo yoki shunchaki rasmiy amalmi? Shu noaniqlik orqali asar ochiq falsafiy xulosa bilan tugaydi. Umuman olganda, "Fotiha" hikoyasida detal xarakter yaratishning asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Har bir qahramon o'ziga xos detal orqali individuallashtiriladi: Muhammadjon — ichki kechinmalari va beparvo tashqi ko'rinishi orqali, Arabjon — do'ppisi va tashqi harakatlari orqali, boshqa personajlar esa nutq va mimika detallar orqali ochiladi. Detal bu yerda statik emas, balki dinamik hodisa bo'lib, voqea rivoji davomida o'z ma'nosini chuqurlashtirib boradi. Hikoya so'ngida Muhammadjonning "xonaga kirib, stollampasini yoqishi" detali oddiy harakat emas. Bu — tashqi muhitdan ichki olamga qaytish, ya'ni ijtimoiy voqelikdan shaxsiy tafakkur makoniga o'tish ramzidir. Stollampa esa bu yerda nur, anglash, idrok timsoli sifatida talqin qilinadi. Agar oldingi sahnalarda qahramon atrofdagi hodisalarga nisbatan biroz loqayd yoki passiv bo'lib ko'ringan bo'lsa, aynan shu detal orqali uning ichki "yorishishi", voqelikni anglash jarayoni boshlanadi.

"Yechinmasdan stulga o'tirishi" detali esa psixologik zo'riqish natijasini bildiradi. Bu — oddiy charchoq emas, balki ruhiy zarba, ichki iztirobning tashqi ifodasidir. U hatto odatiy tartibni ham buzadi. Demak, detal orqali muallif qahramon ruhiyatidagi keskin burilishni ko'rsatadi. Stolda "kechagi chala qolgan she'r nusxalari sochilib yotgani" juda muhim semantik detal hisoblanadi. Bu yerda "chala" so'zi alohida urg'uga ega: nafaqat she'r, balki Muhammadjonning hayotiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari, hatto do'stligi ham "chala" holatda ekanini anglatadi. Sochilib yotgan qog'ozlar esa ichki tartibsizlik, fikrlar parokandaligi



ramzidir. Keyingi bosqichda ruchkani olib “uzoq o‘ylashi” va “Ana senga musulmonchilik, mana senga fotiha” deb pichirlashi ichki monolog detali sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu yerda qahramon tashqi rasm-rusum bilan ichki mohiyat o‘rtasidagi ziddiyatni anglab yetadi. “Musulmonchilik” va “fotiha” tushunchalari ironik ohangda qo‘llanadi, ya’ni ular asl ma’nosidan uzoqlashib, rasmiyatchilik darajasiga tushib qolganini fosh etadi. Eng kuchli badiiy qatlam esa chizilgan tasvirlar orqali ochiladi: “chiroyli kallalar, tirjaygan og‘izlar, yosh tomchilab turgan yirik ko‘z, choynak-piyola, tulkinging popukli dumi...” Bu detallar bevosita tasvir emas, balki ramziy-psixologik belgilar tizimidir.

- “tirjaygan og‘izlar” — ikkiyuzlamachilik, soxta kulgi;
- “yosh tomchilab turgan ko‘z” — chin dard va samimiy iztirob;
- “choynak-piyola” — marosimning tashqi, maishiy tomoni;
- “tulkinging popukli dumi” — ayyorlik, makr ramzi.

Bu tasvirlar orqali Muhammadjon atrofidagi insonlarni badiiy umumlashtirish darajasiga ko‘taradi. Bu endi oddiy kuzatish emas, balki ijodiy tafakkur mahsulidir. “Qog‘ozni g‘ijimlab savatga tashlashi” detali esa rad etish, inkor etish aktidir. U avvalgi fikrlarini, ehtimol, eski qarashlarini yo‘qqa chiqaradi. Bu ichki yangilanishning boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Eng muhim va markaziy detal — yangi oq qog‘ozga “Fotiha!!!” deb yozilishi. Bu yerda bir nechta badiiy qatlam mavjud. Birinchidan, “oq qog‘oz” — yangi boshlanish, yangi fikr, yangi pozitsiya ramzi. Ikkinchidan, uchta undov belgisi — hissiy keskinlik, ichki portlash ifodasi. Bu oddiy yozuv emas, balki ichki hukm, qat’iy xulosa. Eng chuqur ma’no esa oxirgi jumlada ochiladi: “bu “fotiha” marhumga emas, balki Arabjon bilan o‘rtadagi “chala o‘lik munosabat”ga o‘qiladi”.³ Bu nihoyatda kuchli metaforik detal. “Chala o‘lik munosabat” iborasi orqali muallif do‘stlikning allaqachon yemirilib bo‘lganini, faqat tashqi shakli saqlanib qolganini ko‘rsatadi. Demak, fotiha — bu yerda yakunlovchi

³ N.Aminov Tanlangan asarlar.—T.:Sahhof-2025, 542 b



marosim emas, balki munosabatga qo‘yilgan nuqta, ichki hukmdir. Shu tariqa hikoya yakunida detal o‘zining eng yuqori badiiy funksiyasiga ko‘tariladi: u xarakter yaratadi (Muhammadjonning ichki o‘shishi), psixologik jarayonni ifodalaydi (anglash va inkor), va g‘oyaviy xulosani beradi (soxta qadriyatlardan voz kechish). Umuman olganda, aynan shu yakuniy parchada detal — bu nafaqat tasvir vositasi, balki falsafiy umumlashtirish quroliga aylanadi. Ne‘mat Aminov shu orqali o‘quvchini tashqi marosimlar ortidagi haqiqiy insoniy munosabatlar haqida o‘ylashga majbur qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Ne‘mat Aminov “Fotiha” hikoyasida detalni badiiy tafakkurning markaziga qo‘yadi. U orqali muallif nafaqat obraz yaratadi, balki jamiyatdagi ma‘naviy inqiroz, rasmiyatchilik va ichki bo‘shliq muammolarini ochib beradi. Detal — bu asarda oddiy tasvir vositasi emas, balki g‘oya tashuvchi, psixologik tahlil quroli va ijtimoiy tanqid mexanizmi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.Aminov Tanlangan asarlar.—T.:Sahhof-2025, 542 b
2. Solijonov Y. Detallar tilga kirganda. O‘zbek adabiy tanqidi: [antologiya] /tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi B.Karimov; tahriri hay’ati U.Normatov [va boshq] – T.: “TURON-IQBOL”, 2011.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – B.74-75